

XITOIY TILIDA QIYOSLASH KONSTRUKSIYALARIDA DARAJA TENGLIGINING NAMOYON BO‘LISHI



<https://doi.org/10.5281/zenodo.14161729>

Maxamadtoirova Adiba Botir qizi

Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa do‘ktori

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

maxamadtoirova@mail.ru

Annotatsiya. *Qiyoslash konstruksiyalari bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlarda xitoy tilidagi qiyoslash konstruksiyalarining grammatik xususiyatlari, ushbu konstruksiyalarning yasallishidagi o‘ziga xosliklar yoritib berilgan, ularning semantik va tuzilishiga ko‘ra tasnifi amalga oshirilgan. Ammo, ta’kidlash joizki, qiyoslash konstruksiyalarida gradatsiya masalasi shu vaqtga qadar monografik yo‘sinda tadqiq etilmagan. Ushbu maqola hozirgi xitoy tilida qiyoslash konstruksiyalarida gradatsiya munosabatining ifodalanishiga qaratilgan bo‘lib, qiyoslash konstruksiyaalri orqali gradatsiya sodir bo‘lsa, qanday usullar orqali amalga oshishi haqida o‘rganilgan.*

Kalit so‘zlar: *qiyos, taqqos, o‘xshatish, qiyosiy daraja, qiyos obyekti, qiyos subyekti, konstruksiya, gradatsiya.*

THE MANIFESTATION OF DEGREE EQUIVALENCE IN COMPARATIVE CONSTRUCTIONS IN CHINESE

Makhamadtoirova Adiba Botir kizi

State University of Oriental Studies

Doctor of Philosophy, Chinese teacher

maxamadtoirova@mail.ru

Annotation. *In studies on comparative constructions, the grammatical characteristics of comparative constructions in the Chinese language have been explored, highlighting the peculiarities in their formation and classifying them according to their semantics and structure. However, it should be noted that the issue of gradation in comparative constructions has not yet been studied monographically. This article focuses on how the relationship of gradation is expressed in modern Chinese comparative constructions, examining the methods through which gradation occurs via these constructions.*

Keywords: compare, comparison, analogy, comparative degree, object of comparison, subject of comparison, construction, gradation.

Insoniyatning xilma-xillik, murakkabliklarga boy bo‘lgan olamni idrok etib, uning to‘laqonli a‘zosiga aylanishi va shu olamda hayot kechirishi uchun birinchi o‘rinda, “o‘xshashlik”, “farqlilik”, “nisbiylik” kabi boshlang‘ich ibtidolarni anglab yetishi talab qilingan [Usmanov 2020:24]. Aqliy idrok asosida o‘xshatish va farqlay olish yotadi. Ta’kidlash joizki, xitoy tilida “o‘xshashlik”, “farqlilik”, “nisbiylik”ni ifodalovchi gaplar boshqa tillardan o‘zining rang-barangligi bilan ajralib turadi. Ushbu maqolada o‘xshatish asosida qiyoslanadigan konstruksiyalarni semantik tahlil qilishni, ushbu konstruksiyalarda darajalanish munosabatining ifodalanishini o‘rganishni maqsad qilib qo‘yganmiz.

Demak, qiyoslash konstruksiyalari uzluksiz vaqt davomidagi darajalanish va jarayon vaqtidagi darajalanishni ifodalovchi konstruksiyalarga bo‘linadi [Abdurahmonov 1996:34] Jarayon vaqtidagi darajalanishni ifodalanishi ham ikki guruhga bo‘linadi: birinchisi darajalardagi o‘zaro farqni, baland yoki pastlikni ifodalovchi guruh bo‘lib, bunga 比 *bǐ*, 不比 *bùbǐ*, 不如 *bùrú*, 没有 *méiyǒu* ishtirokidagi konstruksiyalar; ikkinchisi darajalarning o‘zaro teng yoki teng emasligini ifodalovchi guruh bo‘lib, bunga: [跟 *gēn*不一样 *bù yíyang*], [跟 *gēn* ...相同 *xiāngtóng*], [跟 *gēn*相似 *xiāngsì*], [跟 *gēn* ...近似 *jìnsì*], [跟 *gēn*类似 *lèisì*], [跟 *gēn*.... 不一样 *bù yíyang*], [不跟 *bùgēn*....一样 *yíyang*], [(没 *méi*) 有 *yǒu*....(那么 *nàme* /这么 *zhème*)...], [...(和 *hé*)...完全两样 *wánquán liǎngyàng*], [...就是不一样 *jiùshì bù yíyàng*], [A 跟 *gēn* B....差不多 *chàbuduo*] ishtirokidagi konstruksiyalar kiradi.

Xitoy tilidagi qiyoslash mazmunli konstruksiyalarning farqlash yoki o‘xshatish orqali amalga oshishiga ko‘ra tasnifi

Farqlash orqali ifodalanuvchi konstruksiyalar	O‘xshatish orqali ifodalanuvchi konstruksiyalar
[[A 跟 <i>gēn</i> B ... 一样 <i>yíyang</i>]	[A 跟 <i>gēn</i> B....相同 <i>xiāngtóng</i>]
[...就是不一样 <i>jiùshì bù yíyàng</i>]	[A 跟 <i>gēn</i> B...相似 <i>xiāngsì</i>]
[...(和 <i>hé</i>)...完全两样 <i>wánquán liǎngyàng</i>]	[A 跟 <i>gēn</i> B....近似 <i>jìnsì</i>]
[A 跟 <i>gēn</i> B 不一样 <i>yíyang</i>]	[A 跟 <i>gēn</i> B....类似 <i>lèisì</i>]
[A 不跟 <i>bùgēn</i> B一样 <i>yíyang</i>]	[A 跟 <i>gēn</i> B....差不多 <i>chàbuduo</i>]

Darajaning teng yoki notengligini ifodalovchi qiyoslash konstruksiyalari, o‘z navbatida, farqlash yoki o‘xshatish orqali amalga oshishiga ko‘ra ikki guruhga

bo‘linadi. O‘xshatish orqali ham qiyoslanadi va bu konstruksiyalar qiyoslash mazmunli konstruksiyalarning asosi hisoblanadi. Bunda qiyoslanayotgan obyektga to‘g‘ridan to‘g‘ri emas, o‘xshatish orqali qiyoslanadi. O‘xshatish orqali ham ikki tushunchani qiyoslash mumkin bo‘lganligi uchun qiyoslash formulasidan foydalaniladi: $[A(\beta B)S]$: 1) A – o‘xshagan narsa; 2) β – o‘xshatish qo‘shimchasi; 3) B – o‘xshatilgan narsa; 4) S – o‘xshash sifat.

Darajaning tengligi [A 跟 gēn B 一样 yí yàng] konstruksiyasida ifodalanishi

[A 跟 gēn B....一样 yí yàng] konstruksiyasi narsa, hodisa va holatlarning o‘zaro bir xilligini bildiruvchi konstruksiyalar qatoriga kiradi. Ushbu konstruksiya A va B ya’ni, ikki o‘xshash narsa yoki holatni taqqoslash uchun qo‘llanib, bunda natijaning teng darajada ekanligi ifodalanadi.

[A 跟 gēn B 一样 yí yàng] konstruksiyasida A hodisa yoki holatlarni ifodalasa, A va B taqqoslanuvchi ikki narsa 一样 yí yàng solishtirish natijasi bo‘lib, kesimning asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Kesimning asosiy komponenti bo‘lgan 跟 gēn B hol vazifasida keladi. Ba’zan 一样 yí yàng dan so‘ng sifat, his-hayajon ifodalovchi fe’llar yoki fe’lli birikmalarni uchratish mumkin. Bu vaqtda 跟 gēn B 一样 yí yàng sifat va fe’lning hol bo‘lagiga aylanadi. 跟 B....一样+sifat/fe’l modelida A qaysidir xususiyati B bilan bir xil ekanligini anglatadi. Masalan:

1. 这个字的声调跟那个字的声调一样。

Zhège zì de shēngdiào gēn nàge zì de shēngdiào yíyang.

Bu iyeroglifning ohangi bilan anavi iyeroglifning ohangi bir xil.

2. 这间屋子跟那间屋子一样大。

Zhèjiān wūzi gēn nàjiān wūzi yíyang.

Bu xona bilan anavi xonaning kattaligi bir xil.

3. 他跟我一样喜欢孩子。

Tā gēn wǒ yíyàng xǐhuan háizi.

U ham bolani mendek yaxshi ko‘radi.

Birinchi misolda 一样 yí yàng gapdagi ikki ohangning bir xil ekanligi, ikkinchi misolda ikkala xonaning ham hajmi bir xil kattalikda ekanligi, uchinchi misolda esa uning bolani yaxshi ko‘rish darajasi “men” bilan bir xilda ekanligi ta’kidlanmoqda.

Bundan tashqari, ushbu modelda qiyosiy daraja bildiruvchi sifat, odatda, 高 gāo baland, 长 cháng uzun, 宽 kuān keng, 厚 hòu qalin, chuqur, 大 dà katta, 多 duō ko‘p, 矮 ǎi past, 短 duǎn kalta, qisqa, 窄 zhǎi tor, ingichka, 薄 báo yupqa, 小 xiǎo kichkina sifatleri bilan bir qatorda, 长度 chángdù balandlikni, 宽度 kuāndù kenglikni, 厚度 hòudù qalinlikni, 容积 róng jī ko‘lamlilikni, 面积 miànjī maydonini, 数量 shù liàng

sanoq miqdorini ifodalovchi soʻzlardan iborat boʻladi. Qolaversa, ularning antonimlarini ham qoʻllash mumkin. Masalan:

这本书跟那本书一样厚, 大概都是二百多页。(这明厚度)

Zhèběn shū gēn nàběn shū yíyàng hòu, dàgài dōushì èrbǎi duō xié.

Bu kitob bilan anavi kitob bir xil qalinlikda, jami taxminan ikki yuz betdan koʻproq.

Diqqat qaratish zarur jihat shundaki, hech qachon 比 *bǐ* va 一样 *yíyàng* dan birga foydalanish mumkin emas. Masalan:

Bu ruchka bilan anavi ruchka bir xil.

这支钢笔跟那支(钢笔)一样。

Zhè zhī gāngbǐ gēn nà zhī (gāngbǐ) yíyàng.

×这支钢笔比那支一样。

Zhè zhī gāngbǐ bǐ nà zhī yíyàng tarzida tarjima qilish mumkin emas.

Quyida ushbu konstruksiyani grammatik xususiyatlarini koʻrib chiqamiz:

[跟 *gēn*....一样 *yí yang*] hol vazifasida kelganda, undan soʻng 地 *de* qoʻyilishi mumkin. Ayniqsa, soʻz birikmalari qoʻllanayotganda. Masalan:

他会跟我们一样地想念祖国。

Tā huìgēn wǒ men yíyàng dìxiǎng niàn zǔ guó.

U ham mendek Vatanini sogʻinadi.

[跟 *gēn*....一样 *yí yang*] aniqllovchi vazifasida ham kelishi mumkin. Bu vazifada, odatda, 一样 *yíyàng* dan keyin 的 *de* qoʻshimchasi qoʻllanishi shart. Masalan: 还有跟这本一样的字典吗? *Hái yǒu gēn zhè běn yíyàng de zìdiǎn ma?* Yana shu bilan bir xildagi lugʻat bormi?

跟 *gēn* old koʻmakchisining oldi va ortida joylashgan A va B ot, olmosh boʻlishi bilan birga, feʼl, sifat va feʼlli birikma hamda sifatli birikma ham boʻlishi mumkin. Masalan:

1. 读跟写一样需要下功夫。

Dú gēn xiě yíyàng xūyào xià gōngfu.

Oʻqish yozishdek bir xil mehnat talab qiladi.

2. 长跟短怎么能一样呢?

Cháng gēn duǎn zěnmé néng yíyàng ne?

Uzun va qisqa qanday qilib bir xil boʻla olishi mumkin?

3. 用钢笔写和用毛笔写一样吗?

Yòng gāngbǐxiě hé yòng máobǐxiě yíyàng ma?

Ruchkada yozish bilan qalamda yozish bir xilmi?

4. 你来跟他来一样, 谁来都能解决问题。

Nǐ lái gēntā lái yíyàng, shuǐ lái dōunéng jiějué wèntí.

Sening kelishish bilan uning kelishi birdek, kim kelsa ham muammoni hal eta oladi.

Yuqorida keltirilgan misollarning birinchisida fe'1, ikkinchisida sifat, uchinchisida sifatli birikma, to'rtinchisida fe'lli birikma qo'llangan.

Demak, yuqorida keltirilgan 这本书跟那本书一样厚, 大概都是四百多页 *zhèběn shū gēn nàběn shū yíyàng hòu, dàgài dōushì sìbǎi duō xié – bu kitob bilan anavi kitob bir xil qalinlikda, jami taxminan to'rt yuz betdan ko'proq misolida anavi kitobning qalinligi bu kitobga nisbatan qiyoslanmoqda va ikkala kitob ham me'yoriy kattalikda qalin ekanligi orqali jarayon vaqtidagi klimaks darajalanish namoyon bo'lmoqda.*

Inkor shakl [A 不跟 *bù gēn* B一样 *yí yang*] yoki

[A 跟 *gēn* B....不一样 *bù yí yang*]

[A 跟 *gēn* B....一样 *yí yang*] konstruksiyasining bo'lishsiz shakli quyidagicha ko'rinishga ega: [A 跟 *gēn* B 不一样 *bù yíyàng*], [A 不跟 *bù gēn* B一样 *yí yang*] bo'lib, [A 跟 B....不一样 *bù yíyàng*] konstruksiyasini quyidagi misollar bilan dalillash mumkin:

1. 七班的节目跟别班的都不一样, 他们跳了一个名族舞。

Qī bān de jiémù gēn bié bān de dōu bù yíyàng, tāmen tiàole yíge míngzú wǔ.

Yettinchi guruhning dasturi boshqa guruhlarnikiga o'xshamaydi, ular milliy raqsnı tanlashgan.

2. 他的意见跟我的意见不一样。

Tāde yìjiàn gēn wǒde yì jiànbù yíyàng.

Uning fikri bilan mening fikrim bir xil emas.

Ba'zi vaqtlarda esa 不跟 *bùgēn*....一样 *yíyang* shaklidan ham foydalansa bo'ladi. Bunday gap tuzilishida 不跟 *bùgēn*.... inkor shakl bo'lib xizmat qiladi. Masalan:

他不跟我一样高, 跟我妹妹一样高。

Tā bú gēn wǒ yíyàng gāo, gēn wǒ mèimèi yíyàng gāo.

U men bilan emas, singlim bilan birdek baland.

Bunday gaplarning tasdiq-inkor ko'rinishdagi savol shakli quyidagicha:

1. 他的意见跟我的意见一样不一样?

Tā de yìjiàn gēn wǒ de yìjiàn yíyang bù yíyang.

Uning fikri bilan sening fikring bir xilmi, yo'qmi?

2. 他跟你一样高不一样高? *Tā gēn nǐ yíyàng gāo bù yíyàng gāo?*

Uning bo'yining balandligi seniki bilan bir xilmi yoki yo'qmi?

E'tibor beriladigan jihat shundaki, ikkinchi misolda 他跟你一样高不高 *tā gēnnǐ yíyàng gāo bù gāo* deb bo'lmaydi, chunki yuqoridagi so'roq gapda balandlikning bir xil yoki bir xil emasligi emas, balki baland-pastligi so'ralmoqda. Bunday holatda qiyoslash mazmunli gap emas, balki oddiy so'roq gap yuzaga keladi.

Inkor shakli [A 跟 *gēn* B...不一样 *bù yí yàng*], [A 不跟 *bùgēn* B一样 *yí yàng*] bo'lib, inkor elementining gapdagi o'rni konstruksiyaning ma'nosiga ta'sir etmasligi, uning og'zaki nutqdagi qulayligini ta'minlab beradi. Mazkur konstruksiya o'zining grammatik xususiyatlariga ko'ra muqobillarga boyligi, rang-barangligi bilan ajralib turadi. Aynan [A 跟 *gēn* B.... 一样 *yí yàng*] konstruksiyasi muqobillarga boy va aynan shu xususiyat uning og'zaki nutqda qo'llashga qulayligini ta'minlaydi.

[跟 *gēn*....相同 *xiāngtóng*] konstruksiyasi

Narsa, hodisa yoki holatdagi o'xshash yoxud farqli tomonlarni ifodalashda [A 跟 *gēn* B 一样 *yí yàng*] konstruksiyasiga mazmunan yaqin bo'lgan [跟 *gēn*....相同 *xiāngtóng*], [跟 *gēn*...相似 *xiāngsì*], [跟 *gēn*....近似 *jīnsì*], [跟 *gēn*....类似 *lèisì*] kabi konstruksiyalardan ham foydalaniladi. [A 跟 *gēn* B 相同 *xiāngtóng*] konstruksiyasining inkor shaklida [跟 *gēn*....不同 *bùtóng* (不相同 *bù xiāngtóng*)] konstruksiyalaridan foydalaniladi. Masalan:

1. 这个零件跟那个零件的形状相同。

Zhège língjiàn gēn nàge língjiàn de xíngzhuàng xiāngtóng.

Bu ehtiyot qismning unisi bilan shakli bir xil.

2. 他的看法跟我们的看法不同。

Tāde kànfǎ gēn wǒmen de kànfǎ bùtóng.

Uning fikri bilan mening fikrim bir xil emas.

Lekin [A 跟 *gēn* B.... 一样 *yí yàng*] konstruksiyasidan farqli o'laroq, [A 跟 *gēn* B.... 相同 *xiāngtóng*], [跟 *gēn*.... 不同 *bùtóng*] konstruksiyasi hol vazifasida kela olmaydi. 我跟他相同高 *wǒ gēntā xiāngtóng gāo*, 我跟他不同高 *wǒ gēn tā bùtóng gāo* deyish mumkin emas.

O'xshashlikni ifodalovchi [跟 *gēn*....相似 *xiāngsì*] konstruksiyasi

Agar narsa yoki holatning bir xil darajada, shu bilan birga, ularning o'xshash ekanligi ifodalanmoqchi bo'lsa, [跟 *gēn*....相似 *xiāngsì*] konstruksiyalaridan ham foydalanish mumkin. Masalan:

1. 个故事的情节跟那个故事相似。

Zhège gùshì de qíngjié gēn nàge gùshì xiāngsì.

Bu hikoyaning mazmuni anavi hikoyanikiga o'xshash.

2. 他俩说话的口气惊人的相似。

Tā liǎ shuōhuà de kǒuqì jīngrén de xiāngsì.

Ikkovining gapirish ohangi ajablanarli darajada o‘xshash.

[跟 gēn....差不多 chàbuduo] orqali qiyoslashda darajalarning yaqinligi

Ma’lum bir shaxs yoki predmetlar o‘rtasidagi o‘xshashlikning, taqqoslanayotgan holat darajalarining deyarli bir-biriga yaqinligini, ammo aynan bir xil emasligini ifodalaydi. Odatda, 一样 yīyàng tushirib qoldiriladi. Masalan:

1. 小张的个子跟他差不多。 *Xiǎozhāng de gèzi gēn tā chàbuduo.*

Syao Djangning bo‘yi uniki bilan deyarli bir xil.

2. 上海和纽约差不多一样。 *Shànghǎi hé Niǔyuē chàbùduō yīyàng.*

Shanxay bilan Nyu York deyarli bir xil.

3. 这里的天气跟我家乡的天气差不多。

Zhèlǐ de tiānqì gēn wǒ jiāxiāng de tiānqì chàbùduō.

Bu yerning havosi vatanimning havosi bilan deyarli bir xil.

4. 您的新衣服跟我的旧衣服差不多。

Nín de xīn yīfú gēn wǒ de jiù yīfú chàbùduō.

Sening yangi kiyiming mening eski kiyimim bilan deyarli bir xil.

Yuqorida keltirilgan konstruksiyaning asosi bo‘lgan 跟 gēn old ko‘makchisini nutqda 与 yǔ, 和 hé, 同 tóng kabi so‘zlar bilan almashtirilib qo‘llansa ham bo‘ladi:

1. 今天才晓得他们的眼光, 全同外面的那伙人一样。

Jīntiāncái xiǎodé tāmen de yǎnguāng, quánóng wàimiànde nà huǒrén yīyàng.

Bugun hozirgina paydo bo‘lgan uning qarashlari tashqarida turgan anavi kishilarniki bilan bir xil.

2. 他们除双手外, 别无长物, 其经济地位和产业工人。

.... *Tāmen chú shuāngshǒu wài, biéwúchángwù, qí jīngjì dìwèi hé chǎnyè gōngrén.*

.... Ularning ikki qo‘ldan boshqa hech narsasi yo‘q, iqtisodiy holati esa ishchilarniki bilan bir xil.

3. 这些学生和旧式学生也不同, 他们不是过去的干部, 就是未来的干部。

Zhèxiē xuésheng hé jiùshì xuésheng yěbù xiāngtóng, tāmen búshì guò qùde gàn bù, jiùshì wèi lái de gàn bù.

Bu talabalar bilan eskicha o‘qigan talabalar birdek emas, ular avvalgi kadrlar emas, balki kelajak kadrlaridir.

4. 他的样子没有多大的变化, 但是服装却与土改时的补丁衣服明显的不同了。 *Tā de yàng zīméi yǒu duō dà de biànhuà, dànshì fúzhuāng què yǔ tǔ gǎi shíde bǔ dīng yīfú míngxiǎn de bùtóng le.*

Uning ko‘rinishida u qadar katta o‘zgarish bo‘lmagan, lekin kiyinishi yer islohotlari davridagi yamoqli kiyimlardan farq qilishi ko‘rinib turibdi.

Ushbu misollar o‘xshatish vositasi orqali qiyoslangan bo‘lib, umuman so‘zlovchining maqsadi o‘xshashlikni aniqlash emas, umuman “A”ning noma’lum xususiyatlariga “B”ga qiyoslash orqali oydinlik kiritishdir.

(和 hé)...完全两样 wánquán liǎngyàng

Ikki shaxs, holat yoki narsaning umuman bir-biriga o‘xshamasligini bildiradi. O‘zbek tiliga “batamom ikki xil”, “umuman boshqa-boshqa” deb tarjima qilinadi. Nutq vaqtida ba’zan 和 hé tushib qolishi mumkin. Masalan:

1. 他们老家过年的习惯和咱们这儿的完全两样。

Tāmen lǎojiā guònián de xíguàn hé zánmen zhèr de wánquán liǎngyàng.

Ularning vatanidagi yangi yilning nishonlanishi bu yerdagi bilan batamom ikki xil.

2. A: 您丈夫现在对您还那么好吗?

Nín zhàngfū xiànzài duì nǐ hái nàme hǎo ma?

Sening ering hozir ham senga juda yaxshi munosabatdami?

3. B: 和结婚前完全两样。现在他对我一点儿也不关系。

Hé jiéhūn qián wánquán liǎngyàng. Xiànzài tā duì wǒ yīdiǎn er yě bù guānxì.

Turmush qurishdan oldingi munosabati bilan umuman ikki xil. Hozir menga sal bo‘lsa ham e’tibor qilmaydi.

A: 这两个菜的做饭一样吗?

Zhè liǎng gè cài de zuòfǎ yīyàng ma?

Bu ikki ovqatning tayyorlanishi bir xilmi?

B: 完全两样。这个是蒸出来的, 那个是煮出来的。

Wánquán liǎngyàng. Zhège shì zhēng chūlái de, nàgè shì zhǔ chūlái de.

Batamom ikki xil. Bunisi parda pishgan, anavinishi qovurilgan.

Yuqorida keltirilgan misollarda qiyoslash o‘xshatish orqali amalga oshgan. Ya’ni gapda ikkita bir-biridan farqli tushunchalar qiyoslangan va ularning batamom ikki xilligi orqali tushunchalar qiyoslangan.

...就是不一样 jiùshì bù yīyàng

就是不一样 jiùshì bù yīyàng muayyan shaxs yoki narsalar o‘rtasida umuman o‘xshashlik yo‘qligiga urg‘u beradi, tasdiq ohangida keladi. Masalan:

1. 看看人家小王,名牌大学毕业的,就是不一样。

Kàn kàn rénjiā xiǎo wáng, míngpái dàxué bìyè de, jiùshì bù yīyàng.

Syao Vangga qarang, mashhur universitet bitiruvchisiga umuman o‘xshamaydi.

2. 到底是大城市就是不一样, 交通多方便, 出门就上车。

Dàodǐ shì dà chéngshì, jiùshì bù yīyàng, jiāotōng duō fāngbiàn, chūmén jiù shàng chē. Va nihoyat katta shahar, umuman boshqacha, transporti juda qulay, eshikdan chiqishning bilan avtobusga o'tirasan.

Yuqorida keltirilgan misollarda o'xshatishning inkor shakli orqali qiyoslangan bo'lib, qiyoslanayotgan ikkita tushunchalar o'rtasida umuman o'xshashlik yo'qligiga urg'u berilgan.

有 yǒu fe'li orqali qiyosning ifodalanishi

有 yǒu fe'li ishtirokidagi qiyos ifodalovchi gaplar quyidagi konstruktsiya asosida tuziladi: [A 有 yǒu B 那么 nàme (这么 zhème)...+]. Bunday tuzilishli gaplarda A va B o'zaro qiyoslanayotganda, B mezon hisoblanadi, A esa B darajasiga yetishidir. 有 yǒu fe'lining o'rnini o'zbek tilida -dek, -cha kabi qo'shimchalar bosishi mumkin, 那么 nàme yoki 这么 zhème holat yoki darajani ifodalash uchun xizmat qiladi.

Masalan:

1. 那棵小树有那座房子那么高了。

Nà kē xiǎoshù yǒu nà zuò fángzi nàme gāo le.

Anavi kichkina daraxt uydek baland.

2. 他弟弟有我这么高了。 *Tā dìdì yǒu wǒ zhème gāo le.*

Uning ukasi mendek baland [倪曙光 2017:22].

Yuqorida keltirilgan 那棵小树有那座房子那么高了 *nà kē xiǎoshù yǒu nà zuò fángzi nàme gāo le* anavi kichkina daraxt uydek baland misolida uyning o'rtacha balandlikdan yuqori ekanligiga ko'ra klimaks darajalanish voqelangan. Daraxt ham uy singari baland bo'lganligi sababli me'yoriy nuqtadan musbat tomonga siljimoqda. Ya'ni, vaqt oralig'ida emas, balki aynan shu vaqtga nisbatan ifodalanayotgani uchun jarayon vaqtidagi darajalanish. Mohiyatan obyektiv ko'rinishda namoyon bo'lgan. Bunday shakldan, odatda, umumiy so'roq gaplar va ritorik so'roq gaplarda foydalaniladi. Masalan:

1. 这座楼有那座楼那么高。 *Zhè zuò lóu yǒu nà zuò lóu nàme gāo.*

Bu bino anavi binodek baland.

2. 她哪儿有你这么会说话呀! *Tā nǎr yǒu nǐ zhème huì shuōhuà ya!*

U qayerdan ham sendek gapirsin!

Keltirilgan misollarda -dek, -cha qo'shimchalari orqali Aning darajasi B bilan aynan bir xil ekanligi ta'kidlanmoqda. Shuningdek, birinchi misolda bu binoning balandligi anavi binoning balandligi bilan bir xil ekanligi darajalash nuqtayi nazaridan klimaks; baholashga ko'ra obyektiv; ifoda mazmuniga ko'ra mantiqiy darajalanish namoyon bo'lgan. Ikkinchi misolda "u"ning gapirishi "sen"dek emas, ya'ni "qayerdan ham sendek gapira olsin?" mazmunidagi jumla orqali "u"ning

gapirishi “sen”ning gapirishiga me’yor qilib olingan va jumlada darajalanishning antiklimaks ko‘rinishi voqelangan. Baholash jihatidan subyektiv, ifoda mazmuniga ko‘ra mantiqiy darajalanish yuzaga chiqqan.

**[A 没有 *méiyǒu* B 那么 *nàme* (这么 *zhème*)...] konstruksiyasi orqali
inkorning ifodalanishi**

[A 有 *yǒu* B 那么 *nàme* (这么 *zhème*)...+] shaklining inkor formasi [A 没有 *méiyǒu* B 那么 *nàme* (这么 *zhème*)...] ko‘rinishida bo‘ladi, bunda Aning B darajasiga yetmaganligini ifodalash uchun xizmat qiladi va -dek emas tarzida tarjima qilinadi. Masalan:

1. 看书没有看电影有意思。 *Kànshū méiyǒu kàn diànyǐng yǒuyìsi.*

Kitob o‘qish film ko‘rishdan qiziq emas.

2. 夏天去北方的城市旅游没有冬天去那么好玩儿。

Xiàtiān qù běifāng de chéngshì lǚyóu méiyǒu dōngtiān qù nàme hǎowánr.

Yozda shimol tomondagi shaharlarga sayohatga borish qishda borishdek qiziqarli emas.

3. 学法语没有学中文这么难。 *Xué fǎyǔ méiyǒu xué zhōngwén zhème nán.*

Fransuz tilini o‘rganish xitoy tilini o‘rganishdek qiyin emas.

Yuqoridagi tahlillardan shunday xulosa qilish mumkinki, inkor shakl [A 没有 *méiyǒu* B 那么 *nàme* (这么 *zhème*)...] orqali darajalanishning antiklimaks ko‘rinishi namoyon bo‘lmoqda. Ya’ni ushbu gaplarda ikki tushuncha bir-biriga o‘xshatish orqali qiyoslanmoqda va gapning birinchi qismida ifodalangan fikr ikkinchi fikrga yeta olmaganligi sababli me’yoriy nuqtadan pasayish tomonga siljigan. Tahlillarimiz yanada aniq bo‘lishi uchun quyidagicha izohlaymiz. Birinchi misolda me’yor qilib “qiziqarli” sifati olingan. Demak, film ko‘rish qiziqarli, kitob o‘qish film ko‘rishdan qiziqarli emas. Bu yerda darajalanishning pasayish, antiklimaks ko‘rinishi namoyon bo‘lgan. Baholash nuqtayi nazaridan yondashilganda, subyektiv gradatsiya; ifoda mazmuniga ko‘ra emotsional gradatsiya ifodalangan. Lekin “qiziqarli” sifatini o‘zi tahlil qilinsa, unda klimaks darajalanish namoyon bo‘lar edi. Ikkinchi va uchinchi misollarda ham shuni kuzatamiz, ya’ni antiklimaks darajalanish, baholashga ko‘ra subyektiv, ifoda mazmuniga ko‘ra emotsional darajalanish bo‘lgan. ~~Shuningni, inkor shakli [A 没有 *méiyǒu* B 那么 *nàme* (这么 *zhème*)...] orqali darajalanish bo‘lgan~~ *比 bǐ* old ko‘makchisi ishtirokidagi qiyoslash konstruksiyasining inkor shakliga to‘g‘ri keladi. [A 没有 *méiyǒu* B 那么 *nàme* (这么 *zhème*)...] shakli esa 有 *yǒu* ishtirokidagi qiyoslash konstruksiyasining inkor shaklidir, chunki *比 bǐ* old ko‘makchisi ishtirokidagi qiyoslash konstruksiyasi Aning B ga qaraganda ortiq yoki kamligini ifodalaydi. Buni quyidagi misollar orqali ko‘rib chiqamiz:

1. 他比我高 *tā bǐ wǒ gāo* – u mendan baland.

2. 他没有我高 *tā méiyǒu wǒ gāo* – u mendan baland emas.

Agar “他没有我这么高 – *tā méiyǒu wǒ zhème gāo*” bo‘lsa, “u mendek baland emas” degan mazmun anglashiladi. Bunda darajaning tengligini ifodalovchi “他有我这么高 *tā yǒu wǒ zhème gāo* – u mendek baland”ni darajaning tengligiga o‘xshashligini ifodalovchi konstruksiyasining inkor shakliga kiritish mumkin. Fikrimiz isboti uchun bir necha misollarning tahlilini beramiz.

1. 这个房间比那个房间大。

Zhège fángjiān bǐ nàgè fángjiān dà.

Bu xona anavi xonadan katta.

这个房间没有那个房间大。

Zhège fángjiān méiyǒu nàgè fángjiān dà.

Bu xona anavi xonadan katta emas.

这个房间没有那个房间那么大。

Zhège fángjiān méiyǒu nàgè fángjiān nàme dà.

Bu xona anavi xonadek katta emas.

2. 这家商店的东西比那家的东西便宜。

Zhè jiā shāngdiàn de dōngxī bǐ nà jiā de dōngxī piányí.

Bu do‘konning mahsuloti anavi do‘konnikidan arzon.

这家商店的东西没有那家的东西便宜。

Zhè jiā shāngdiàn de dōngxī méiyǒu nà jiā de dōngxī piányí.

Bu do‘konning mahsuloti anavi do‘konnikidan arzon emas.

这家商店的东西没有那家的东西那么便宜。

Zhè jiā shāngdiàn de dōngxī méiyǒu nà jiā de dōngxī nàme biàn zhí.

Bu do‘konning mahsuloti anavi do‘konnikidek arzon [倪曙光 2017:32].

Ushbu misollardan 那么 *nàme* (这么 *zhème*)... qo‘shilganda [A+有 *yǒu*+B+那么 *nàme* (这么 *zhème*)....+] konstruksiyasining inkor shaklini o‘xshatish orqali ifodalanishini ko‘rish mumkin. Agar 没有 *méiyǒu* orqali inkor mazmuni voqelansa va gapda 那么 *nàme* yoki 这么 *zhème* ishtirok etmasa, 比 *bǐ* old ko‘makchisi ishtirokidagi qiyoslash konstruksiyasining inkor shaklini ifodalaydi va bunday gaplar sof qiyoslashning inkor shaklini namoyon etadi. Yuqoridagi misolda keltirilgan “这个房间没有那个房间那么大 *zhège fángjiān méiyǒu nàgè fángjiān nàme dà* bu xona anavi xonadek katta emas” misolida bu xonaning u xonadan katta emasligini, lekin u xonadek bir xil kattalikda bo‘lishi mumkinligini; “这个房间没有那个房间大 *zhège fángjiān méiyǒu nàgè fángjiān dà* bu – xona anavi xonadan katta emas” misoli orqali

esa bu xona u xonadan katta emasligini, ammo u xonaning kattaligi bilan bir xil kattalikda bo'lishi mumkinligi ifodalanmoqda. Demak, 1-misolda ikki qiyoslanayotgan holat o'rtasidagi daraja tengligi bir xil ekanligi, 2-misolda esa natijalar orasida farq bor ekanligini kuzatish mumkin.

Keltirilgan misollarga darajalash nuqtayi nazaridan yondashadigan bo'lsak, birinchi misolda xonaning kattaligi so'zlovchining me'yoriy *katta* tushunchasiga yeta olmasligi orqali baholash nuqtayi nazaridan subyektiv, ifodalayotgan mazmunga ko'ra miqdoriy darajalanish namoyon bo'lgan. Ikkinchi misolda me'yor qilib olingan *arzonga* nisbatan *qimmatligi* orqali musbat tarafga siljigan va darajalanishning klimaks ko'rinishi namoyon bo'lgan. Baholash nuqtayi nazaridan subyektiv, ifodalayotgan mazmunga ko'ra miqdoriy darajalanish ifodalangan misollardan ko'rinib turibdiki, 没有 *méiyǒu* orqali inkor ifodalanganda ham Aning B dan ko'ra ortiq yoki kam emasligi anglatiladi.

Shunda uni 比 *bǐ* old ko'makchisi ishtirokidagi qiyos konstruksiyasining inkor shakliga ham kiritish mumkin. 没有 *méiyǒu* orqali inkor mazmuni ifodalanganda, 那么 *nàme* yoki 这么 *zhème* bilan birga qo'llansa, Aning B dek emasligi ifodala topadi va daraja tengligining o'xshashligini bildiruvchi [A+有 *yǒu*+B+那么 *nàme* (这么 *zhème*)....+] konstruksiyasining inkor shakliga qo'shish mumkin.

Demak, yuqorida keltirilganlardan quyidagicha **xulosaga** kelishimiz mumkin.

Qiyoslash mazmunli gaplarda hamisha murakkab mazmunli munosabat ifodalanadi, ya'ni ularda eng kami ikkita semantik propozitsiya bo'ladi. Bu ikki propozitsiya o'zaro *farqlash* va *o'xshatish* vositasida bog'lanadi. Nutqda o'xshatish orqali ikki tushuncha bir-biriga qiyoslanganda hukm to'g'ridan to'g'ri, bevosita emas, balki muayyan boshqa hukmga nisbatan ifodalanadi. O'xshatish asosida ham qiyoslash bo'lganligi uchun qiyoslash formulasidan foydalaniladi: [Aβ(V)S]: 1) o'xshagan narsa; 2) o'xshatilgan narsa; 3) o'xshatish

qo'shlarining o'xshash sifat.teng yoki notengligini ifodalovchi qiyoslash konstruksiyalari guruhi ham, o'z navbatida, ikkiga bo'linadi. Birinchisi darajaning teng emasligini farqlash orqali bildiruvchi konstruksiyalar: [跟....不一样], [...(和)...完全两样], [...就是不一样]; ikkinchisi darajaning teng yoki notengligini o'xshatish orqali bildiruvchi konstruksiyalar: [(没)有.... (那么这么)...], [A跟 B....相同], [A跟 B...相似], [A跟 B....近似], [A跟 B....类似].

Narsa, hodisa va holatlarning o'zaro bir xilligini ifodalovchi [A跟 *gēn* B 一样 *yīyàng*] konstruksiyasi va uning inkor shakli [A跟 *gēn* B...不一样 *bù yīyàng*], [A不跟 *bùgēn* B一样 *yīyàng*] bo'lib, [A跟 *gēn* B.... 一样 *yīyàng*] konstruksiyasidagi 一样 *yīyàng* o'rniga 相同 *xiāngtóng* /相似 *xiāngsì* /近似 *jìnsì* /类似 *lèisì* so'zlaridan

foydalanish mumkin. Old ko‘makchi 跟 *gēn* o‘rniga 与 *yǔ*, 和 *hé*, 同 *tong* kabi so‘zlarni almashtirilib foydalanish mumkinligini, aynan shu xususiyat uning og‘zaki nutqdagi qulayligini ta‘minlab beradi. 没有 *méiyǒu* orqali inkor mazmuni ifodalanganda, u ham 比 *bǐ* qiyos konstruksiyasining inkor shaklini, ham 有 *yǒu* konstruksiyasining inkor shakliga kiritish mumkin. Eng muhim e‘tibor qaratilishi lozim jihat shundaki, xitoy tilida [A 比 *bǐ* B.....一样 *yīyàng*], [比 *bǐ* ...不一样 *bù yīyàng*], [有 *yǒu*...一样 *yīyàng*] kabi modellar mavjud emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Абдурахмонов Ф. Ўзбек тили грамматикаси II. Синтаксис. – Тошкент: Фан, 1996. – 334 б.
2. Усманов Ф. Ўзбек тилидаги ўхшатишларнинг лингвомаданий тадқиқи: Филол. фан. б. фалс. д-ри. ... дисс. – Андижон, 2020. – Б. 24.
3. 故播刘. 现代汉语语法. – 北京: 新世界出版社出版, 2003 年. – 224 页.
4. 王力. 中国现代语法. 北京, 商务印书馆, 1995 年. – 423 页.
5. 倪曙光. “更”, “还”, “再”在比较句中的句法, 语义, 语用研究. 南京大学, 2017 年. – 151 页.